

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISHDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISH (PBL) TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Jumayeva Feruza Uralovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (DSc).

e-mail: jumayevaferuza@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5356-9167>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada *Project-Based Learning* (loyiha asosida o'qitish) texnologiyasi yordamida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanini o'qitishning pedagogik samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik kuzatish, o'zaro baholash va Blum taksonomiyasiga asoslangan baholash metodlaridan foydalanildi. Natijalar loyiha asosida o'qitish (PBL) talabalarning lingvistik, pedagogik, tadqiqotchilik va raqamli kompetensiyalarini hamda tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantirish, shuningdek, nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishda samarali ekanligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: *Project-Based Learning*, loyiha asosida o'qitish, Hozirgi o'zbek adabiy tili, morfologiya, pedagogik samaradorlik, lingvistik kompetensiya, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya, sun'iy intellekt, oliy ta'lim, Blum taksonomiyasi.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ (PBL) ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Джумаева Феруза Ураловна

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (DSc).

Аннотация.

В статье рассматривается вопрос повышения педагогической эффективности преподавания дисциплины «Современный узбекский литературный язык» с использованием технологии *Project-Based Learning* (проектного обучения). В исследовании применялись методы теоретического анализа, опытно-экспериментальной работы, педагогического наблюдения, взаимного оценивания и оценивания на основе таксономии Блума. Результаты исследования подтверждают эффективность проектного обучения (PBL) в развитии лингвистической, педагогической, исследовательской и цифровой компетенций студентов, навыков критического мышления, а также в интеграции теоретических знаний с практической деятельностью.

Ключевые слова: *Project-Based Learning*, проектное обучение, современный узбекский литературный язык, морфология, педагогическая эффективность, лингвистическая компетенция, педагогическая компетенция, цифровая компетенция, искусственный интеллект, высшее образование, таксономия Блума.

THE EFFECTIVENESS OF APPLYING PROJECT-BASED LEARNING (PBL) TECHNOLOGY IN TEACHING THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

Jumayeva Feruza Uralovna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (DSc).

Abstract.

This article examines the enhancement of the pedagogical effectiveness of teaching the course "Modern Uzbek Literary Language" through *Project-Based Learning* (PBL) technology. The study employed theoretical analysis, experimental research, pedagogical observation, peer assessment, and assessment methods based on Bloom's taxonomy. The findings demonstrate that Project-Based Learning (PBL) is effective in developing students' linguistic, pedagogical, research, and digital competencies, as well as their critical thinking skills, while also integrating theoretical knowledge with practical application.

Keywords: Project-Based Learning, PBL, Modern Uzbek Literary Language, morphology, pedagogical effectiveness, linguistic competence, pedagogical competence, digital competence, artificial intelligence, higher education, Bloom's taxonomy.

Kirish. Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabalariga o'tiladigan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsida morfemika, so'z yasalishi, morfologiya hamda grammatik kategoriyalar tizimli ravishda o'rganiladi. Mazkur fan doirasida o'zlashtiriladigan bilimlar nafaqat nazariy tayyorgarlikni, balki bilim va tajribalarni kelajakdagi pedagogik faoliyatda samarali qo'llay bilish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Shu bois ushbu fanni o'qitishda

talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb etuvchi innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'qitish jarayonida talaba ko'pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Bunday yondashuv nazariy bilimlarni egallashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, mustaqil tadqiqot olib borish, jamoada ishlash, ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish kabi kompetensiyalarni to'liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Shu sababli ta'lim amaliyotida talabani faol izlanuvchi va bilim yaratuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalarni qo'llash kognitiv faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shunday yondashuvlardan biri Project-Based Learning (loyiha asosida o'qitish) texnologiyasidir. Mazkur texnologiya bilimning tayyor shaklda berilishini emas, balki uni muayyan muammoni o'rganish, izlanish olib borish, hamkorlikda ishlash va mahsulot yaratish jarayonida mustaqil ravishda egallashni nazarda tutadi. PBL talabalarining nazariy bilimlarini real vaziyatlar bilan integratsiyalash, ularning tadqiqotchilik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

Project-Based Learning (PBL) texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga ko'plab xorijiy olimlar salmoqli hissa qo'shgan. Jumladan, Thomas J.W., Condcliffe B., Quint J., Visher M. G., Bangser M. R., Drohojowska S., Saco L., Nelson E., Chen C.-H., Yang Y.-C., Zhang L., Ma Y., Grant M.M., English M.C., Kitsantas A. [5; 2; 1; 6; 4; 3] kabi olimlar o'z tadqiqotlarida PBLning nazariy asoslari, uni ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligi hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, hamkorlikda ishlash va o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rgangan. Umuman olganda, mazkur tadqiqotchilar PBL o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Project-Based Learning texnologiyasi bo'yicha xalqaro miqyosda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu texnologiyani "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining morfologiya bo'limini o'qitishga moslashtirish, loyiha faoliyatini pedagogik amaliyot bilan integratsiyalash va bu jarayonda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur ish aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, PBL texnologiyasini filologik ta'lim jarayoniga tatbiq etishning metodik modelini taklif etadi hamda uning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari bilan asoslaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili fani dasturidagi sakkizta amaliy mashg'ulot mavzusidan to'rttasi loyiha mavzulari sifatida tanlandi. Ular quyidagilardan iborat:

- fe'l so'z turkumining grammatik imkoniyatlari;
- ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari;
- son va olmosh so'z turkumlari;
- yordamchi so'zlar.

Amaliy mashg'ulotda qatnashayotgan talabalar to'rtta kichik guruhga ajratildi va mavzular guruhlariga taqsimlab berildi. Har bir guruh o'ziga birlashtirilgan mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rgandi, til materiallarini tahlil qildi, metodik vositalar ishlab chiqdi va yakuniy loyiha mahsulotini yaratdi.

PBL texnologiyasi asosida dars tashkil etishda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba-sinov, loyiha faoliyatini tashkil etish, guruhlararo o'zaro baholash, refleksiya hamda Blum taksonomiyasi asosidagi baholash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi PBL texnologiyasining ta'lim jarayoniga ta'sirini kompleks baholash imkonini berdi. PBL texnologiyasi asosida tashkil etilgan ushbu mashg'ulotlar bir necha bosqichda amalga oshirildi:

Birinci bosqichda loyiha mavzulari tanlandi, guruhlar shakllantirildi hamda loyiha maqsadi va kutilayotgan natijalar belgilandi.

Ikkinchi bosqichda talabalar ilmiy manbalarni tahlil qildilar, nazariy materiallarni to'plab, tizimlashtirdilar va mavzuga oid til birliklarini real matnlar va manbalar asosida o'rgandilar.

Uchinchi bosqichda guruhlar mavzuga mos metodik mahsulotlar yaratdilar. Jumladan, elektron taqdimotlar, lingvistik jadvallar, amaliy mashqlar, test topshiriqlari, dars ishlanmalari hamda ko'rgazmali materiallar ishlab chiqildi.

To'rtinchi bosqichda tayyorlangan loyihalar auditoriyada himoya qilindi, guruhlararo muhokama tashkil etildi va o'zaro baholash amalga oshirildi.

Yakuniy bosqichda ishlab chiqilgan metodik materiallar talabalarining pedagogik amaliyoti davomida maktablardagi ona tili darslarida qo'llanilib, ularning amaliy samaradorligi o'rganildi.

Loyiha jarayonida hamkorlik tamoyiliga alohida e'tibor qaratildi. Guruhdagi har bir a'zoning vazifalari oldindan taqsimlandi. Har bir talaba o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashdi. Guruh tarkibida loyiha rahbari, ilmiy manbalarni yig'uvchi, muharrir, amaliy topshiriqlarni ishlab chiquvchi, taqdimot tayyorlovchi hamda loyiha taqdimotchisi kabi rollar belgilandi. Bunday taqsimot loyiha ishining tizimli tashkil etilishi va barcha talabalarining faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar talabalarining lingvistik bilimga ega bo'lishi bilan bir qatorda, pedagogik va tadqiqotchilik kompetensiyalarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. Shuningdek, dars jarayonlarida quyidagi natijalarga erishildi:

- Hozirgi o'zbek adabiy tili fanini o'qitishda Project-Based Learning texnologiyasini qo'llashning metodik modeli ishlab chiqildi;
- fan dasturida belgilangan to'rtta mavzuni o'qitish loyiha asosida tashkil etilib, talabalarining mustaqil faoliyati yo'lga qo'yildi;
- loyiha faoliyati talabalarining lingvistik, tadqiqotchilik, pedagogik va raqamli ta'limga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

– o‘zaro baholash va Blum taksonomiyasiga asoslangan baholash modeli ta’lim natijalarini kompleks baholash imkonini berdi;

– sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ta’lim resurslarini yaratish sifati hamda talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qildi.

PBL jarayoni talabalarni mustaqil ilmiy izlanishga yo’naltirdi. Loyiha davomida ular jamoada ishlash, ilmiy adabiyotlarni izlab topish va ulardan foydalanish, ma’lumotlarni tanlash va tizimlashtirish, lingvistik materiallarni tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarish bosqichlarini mustaqil amalga oshirdilar. Ushbu jarayon ularda ilmiy tafakkur, tahliliy yondashuv va akademik muloqot madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi.

Loyiha yakunida talabalar tomonidan turli xil ta’lim resurslari yaratildi. Elektron taqdimotlar; morfemika va morfologiyaga oid bilimlarni oson o‘zlashtirishga yordam beruvchi sxema va jadvallar; matn asosidagi tahliliy topshiriqlar; testlar va baholash materiallari; interfaol metodlar, o‘yin va topshiriqlar; amaliy mashqlar majmuasi; dars ishlanmalari; metodik tavsiyalar; ko‘rgazmali va tarqatma materiallar shular jumlasidandir. Mazkur mahsulotlar fan mazmunini o‘zlashtirish vositasi bo‘lish bilan birga, keyinchalik pedagogik amaliyotda foydalanishga mo‘ljallangan metodik resurs sifatida ham xizmat qildi. Talabalar o‘zlari ishlab chiqqan metodik materiallardan maktabda ona tili darslarida foydalandilar hamda PBL asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning o‘quvchilar faolligiga ta’sirini kuzatdilar.

Talabalar faoliyati ko‘p bosqichli baholash tizimi asosida tahlil qilindi. Baholashda ikki asosiy yondashuv qo‘llanildi.

Birinchisi guruhlararo o‘zaro baholash bo‘lib, bunda talabalar belgilangan mezonlar asosida boshqa guruhlarining loyiha ishlarini tahlil qildilar. Ushbu yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, dalillash va refleksiv faoliyatni rivojlantirdi. Talabalar boshqa guruhlarining loyiha ishlarini belgilangan mezonlar asosida tahlil qilib, ularning kuchli va takomillashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini asosli ravishda baholadilar. Mazkur jarayon tanqidiy fikrlash, akademik muloqot, dalillash hamda jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, talabalar o‘z loyihalaridagi kamchiliklarni aniqlash va keyingi faoliyatda ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Ikkinchisi Blum taksonomiyasi asosidagi baholash bo‘lib, unda talabalar faoliyati bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlari bo‘yicha kompleks baholandi. Mazkur yondashuv loyiha faoliyatining nafaqat yakuniy mahsulotini, balki talabalarining butun o‘quv jarayonidagi kognitiv rivojlanishini tahlil qilish imkonini berdi.

An’anaviy baholashda asosiy e’tibor ko‘pincha o‘qituvchi xulosasiga qaratilsa, o‘zaro baholash jarayonida talabalar ham baholash mezonlarini tushunuvchi va tahlil qiluvchi subyektga aylanadilar. Bunday yondashuv talabalarda mas’uliyat hissini oshiradi, ularni sifatli loyiha yaratishga undaydi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu ikki baholash mezoni hamda o‘qituvchining baholash uslubi uyg‘unligida loyiha ishlarini baholash modeli ishlab chiqildi va dars jarayonida qo‘llanildi. Mazkur modelning asosiy maqsadi talabalarni faqat tayyor mahsulot natijasi bo‘yicha emas, balki loyiha jarayonida amalga oshirgan ishlari, izlanishlari, tahlillari, hamkorlikda ishlash qobiliyati, jamoadagi tashabbuskorligi va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari asosida baholashdan iborat bo‘ldi. Baholash jarayonida uchta asosiy subyekt ishtirok etdi:

1. **O‘qituvchi bahosi.** Loyiha mazmuni, ilmiyligi, amaliy ahamiyati, taqdimot sifati va guruh a’zolarining faolligi e’tiborga olinadi.

2. **Loyiha egalarining o‘zini baholashi.** Guruh a’zolari o‘zlari yaratgan loyiha mahsulotini mustaqil tahlil qilib, unga baho berdilar va qo‘yilgan bahoni dalillar asosida himoya qildilar.

3. **Loyiha ishini tinglab, tahlil qilayotgan talabalar bahosi.** Darsda ishtirok etayotgan va loyiha ishini tinglab, tahlil qilayotgan talabalar loyiha ishining kuchli va takomillashtirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlash orqali baholash jarayonida ishtirok etdilar.

Baholash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avvalo, o‘qituvchi loyiha ishini va talabalarining hamkorlikda ishlash mahoratini mustaqil tahlil qilib, aytaylik, 3 ball bilan baholaydi. Shundan so‘ng loyiha mualliflaridan o‘z ishlariga baho berish so‘raladi. Masalan, loyihani bajargan guruh o‘z faoliyatini 5 yoki 4 ballga loyiq deb baholagan bo‘lsa, ushbu bahoni aniq dalillar bilan asoslab berishi talab etiladi. Keyingi bosqichda darsda qatnashayotgan va loyiha ishida ishtirok etmagan talabalar ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga loyiha ishining 5 ta kamchiligini aniqlash topshirig‘i beriladi. Ikkinchi guruhdan esa loyiha ishining 5 ta yutug‘ini ko‘rsatish talab qilinadi. Baholashning asosiy tamoyili shundan iborat bo‘ladiki, aniqlangan har bir yutuq yoki kamchilik loyiha bahosiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida qabul qilinadi. Ko‘rsatilgan har bir yutuq yoki kamchilik uchun bir ball beriladi. Aytaylik, 1-guruh 5 ta kamchilikni aniqlasa va ularning kamchilik ekanligini asoslab bera olsa, loyiha 5 ballik tizimda 5 ball bilan baholanadi. Agar 4 ta kamchilik ko‘rsatilsa, loyiha 4 ball darajasida baholanadi. Agar 2-guruh 3 ta yutuq borligini asoslab bera olsa, loyiha 3 ballik qiymatga ega deb qaraladi. Agar 5 ta yutug‘i borligini isbotlab bera olsa, 5 ball beriladi. Bu jarayonda talabalar loyiha mualliflarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida diqqat, e’tibor va izlanuvchanlik bilan yutuq va kamchiliklarni izlashga harakat qilishadi. Bunda talabalar tomonidan bildirilgan har bir fikr, albatta, dalillar bilan asoslanishi talab qilinadi. Shunchaki “yaxshi” yoki “yomon” tarzidagi subyektiv fikrlar emas, balki loyiha ishining mazmuni, ilmiyligi, amaliy ahamiyati, taqdimot sifati, yaratilgan mahsulotning natijadorligi va metodik qiymatga egaligi inobatga olinadi. Bu esa talabalarining mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, ilmiy va aqliy salohiyatini rivojlantiradi. Yakuniy baholashda to‘rtta asosiy baho: o‘qituvchi qo‘ygan ball, loyiha egalarining o‘z ishiga qo‘ygan balli va ikkita guruh qo‘ygan ballar umumlashtiriladi. Ushbu to‘rtta ballning yig‘indisi 4 ga bo‘linadi. Natijada loyiha ishining yakuniy o‘rtacha bahosi aniqlanadi. Aytaylik, loyiha ishiga qo‘yilgan o‘rtacha baho 4 ball bo‘ldi, biroq loyiha egalari ushbu ish 5 ballga loyiq deb e’tiroz bildirsa, bunday holatda ulardan qo‘shimcha bir ball uchun arziqli yana bir yutuqni ko‘rsatishi va asoslab berishi talab qilinadi. Talabalar loyihaning e’tibor qaratilmagan muhim bir jihatini,

ya'ni yutug'ini ko'rsata olsa, qo'shimcha ball olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur baholash modeli talabalarni baho uchun emas, balki sifatli loyiha yaratish, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'z fikrini ilmiy asosda himoya qilishga yo'naltiradi.

Loyiha yaratish va uni taqdim etish jarayonini Blum taksonomiyasi asosida olib borish loyiha faoliyatining barcha kognitiv bosqichlarini o'rganish va baholash imkonini kengaytiradi. Blum taksonomiyasining muhim jihati shundaki, talabalar morfologik bilimlarni o'zlashtiradilar, ularni izohlash, nutqda samarali qo'llay bilish, grammatik hodisalarni qiyosiy tahlil qilish, loyiha natijalarini baholash va yangi metodik mahsulotlar yaratish bosqichlarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar.

Ayniqsa, Blum taksonomiyasining yaratish bosqichida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari, testlar, taqdimotlar, amaliy mashqlar va metodik tavsiyalar talabalarining ijodiy va kasbiy kompetensiyalari mahsuli hisoblanadi.

Dars jarayonida PBL texnologiyasini qo'llash natijasida talabalar nafaqat lingvistik bilimlarni egallaydilar, balki ilmiy manbalarni izlash, tanlash, ularni o'rganish, tahlil qilish va o'z xulosalarini ilmiy asosda himoya qilish tajribasini ham orttiradilar. Loyiha asosida o'qitish faoliyatining muhim natijalaridan biri nazariya va amaliyot integratsiyasining ta'minlanishidir. Odatda morfologiya fanini o'qitishda asosiy e'tibor grammatik qoidalarni tushuntirish va mashqlar bajarishga qaratiladi. PBL texnologiyasi esa bu jarayonni amaliy tadqiqot faoliyatiga aylantiradi. Tadqiqot davomida qo'llaniladigan guruhli hamkorlik modeli talabalarining jamoaviy tarzda loyiha ishlarini tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Vazifalarning guruh a'zolari o'rtasida aniq taqsimlanishi har bir ishtirokchini loyiha ishini yaratishda mas'uliyat bilan ish olib borishga o'rgatadi.

Umuman olganda, loyiha asosida o'qitish (PBL) texnologiyasi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, talabalarining mustaqil fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali tatbiq etishga o'rgatish imkonini beradi. Mazkur texnologiyaning asosiy afzalligi shundaki, unda talaba tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki bilimni izlanish, tahlil va amaliy faoliyat orqali egallovchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Darslarni olib borishda loyiha asosida o'qitish (PBL) texnologiyasini qo'llashning samarali jihatlari bilan bir qatorda, ayrim tashkiliy muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, mazkur texnologiya asosida tashkil etilgan dars an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan ko'proq vaqt va izlanish talab qiladi. Talabalar g'oyalar ustida ishlash, loyiha ishini rejalashtirish, manbalarni izlash, materiallarni saralash va mahsulot yaratish, taqdimot tayyorlash, tajribadan o'tkazish, natijani tahlil qilish uchun mustaqil tarzda izlanish olib borishi va buning uchun ko'proq vaqt sarflashi zarur bo'ladi. Ikkinchidan, jamoa bo'lib ishlashda guruh a'zolarining faollik darajasi bir xil bo'lmasligi mumkin. Ayrim talabalar faol ishtirok etsa, ba'zilar passiv kuzatuvchi bo'lib qolishi ehtimoli mavjud. Uchinchidan, loyihalarni baholashda aniq va shaffof mezonlarni ishlab chiqish talab etiladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda o'zaro baholash va Blum taksonomiyasi mezonlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim tashkiliy muammolar ham kuzatildi. Rejalashtirilgan 80 daqiqalik darsning 20 daqiqasi loyiha taqdimoti uchun ajratilgan edi. Biroq ayrim guruhlar loyiha taqdimoti uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olmagan bo'lsa, taqdimot jarayoni 30 daqiqagacha davom etdi. Natijada bu holat darsning rejalashtirilgan vaqt taqsimotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Xullas, dars jarayonida PBL texnologiyasini qo'llash an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan ko'proq vaqt va resurs talab qiladi. Shuningdek, ayrim hollarda guruh a'zolarining faolligi bir xil bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda vazifalarni aniq taqsimlash, shaffof baholash mezonlarini qo'llash loyiha samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

PBL texnologiyasining samaradorligini oshiradigan muhim jihatlardan biri — sun'iy intellekt (SI) vositalarining loyiha faoliyatiga integratsiya qilinganidir. Talabalar sun'iy intellektdan test topshiriqlari, taqdimotlar va vizual materiallar yaratishda foydalandilar. Biroq barcha materiallar ilmiy va metodik jihatdan qayta tahlil qilinib, pedagogik maqsadlarga moslashtirildi. Bu yondashuv raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Bu jarayonda talabalar sun'iy intellektning inson tafakkurini to'ldiruvchi zamonaviy texnologik vosita ekanligini anglab yetdilar. SI katta hajmdagi axborotni tezkor qayta ishlash, turli g'oyalarni taklif qilish, materiallarni tizimlashtirish va ijodiy jarayonni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, inson tafakkurining mantiqiy xulosa chiqarish, ijodiy yondashuv, qadriyatlar asosida baholash, pedagogik vaziyatlarni his qilish kabi jihatlarni to'liq qamrab olmasligini anglab yetdilar. Shu sababli talabalarga SI dan foydalanishda texnologik imkoniyatlarni insonning kasbiy bilimi, tajribasi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashi bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslab berildi. Loyiha faoliyati davomida talabalar yaratgan g'oyalarga mos ravishda sun'iy intellekt yordamida quyidagi faoliyatlarni amalga oshirdilar:

- test topshiriqlarini ishlab chiqish va ularning mazmunini tahlil qilish;
- mavzuga oid savol va topshiriqlar bankini yaratish;
- lingvistik tushunchalarni yorituvchi rasmlar, diagrammalar, umuman, ko'rgazmali materiallar tayyorlash;
- yaratilgan ko'rgazmali materiallar asosida ijodiy va tahliliy matnlar tuzish;
- o'quv jarayonida foydalanish uchun qisqa videolavhalar tayyorlash;
- taqdimot materiallarini mazmun va dizayn jihatidan takomillashtirish;
- elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ularni pedagogik maqsadlarga moslashtirish.

SI vositalaridan foydalanish jarayonida talabalarga tayyor g'oya yoki axborotni oddiy qabul qilish emas, balki uni tahliliy yondashuv asosida baholash talabi qo'yildi. Talabalar SI yordamida yaratilgan materiallarning ilmiy asoslanganligi, metodik jihatdan to'g'riligi, o'zbek tili me'yorlariga mosligi hamda ta'lim maqsadlariga muvofiqligini tekshirishni o'rgandilar. Bu jarayon talabalarni raqamli muhitda ishlash bilan birga, axborotning ishonchligini baholash va mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatadi. SI tomonidan yaratilgan materiallarni bevosita qabul qilish emas, balki ularni takomillashtirish va pedagogik nuqtayi nazardan baholash zarurligini o'rgandilar.

Xullas, til ta'limida PBL texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy kompetensiyasi, tadqiqotchilik qobiliyati va raqamli savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi. Biroq uning samaradorligi loyiha mavzusining o'quv maqsadlariga mos tanlanishi, topshiriqlarning aniq ishlab chiqilishi, o'quvchilar faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi va baholash mezonlarining oldindan belgilanishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chen C.-H., Yang Y.-C. Revisiting the Effects of Project-Based Learning on Students' Academic Achievement: A Meta-Analysis Investigating Moderators // Educational Research Review. – 2019. – Vol. 26. – P. 71–81. – DOI: 10.1016/j.edurev.2018.11.001.
2. Condliffe B., Quint J., Visher M. G., Bangser M. R., Drohojowska S., Saco L., Nelson E. Project-Based Learning: A Literature Review. Working Paper. – New York, NY: MDRC, 2017. – 78 p. https://www.mdrc.org/sites/default/files/Project-Based Learning-LitRev_Final.pdf
3. English M. C., Kitsantas A. Supporting Student Self-Regulated Learning in Problem- and Project-Based Learning // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. – 2013. – Vol. 7, No. 2. – P. 128–150. – DOI: 10.7771/1541-5015.1339.
4. Grant M. M. Learning, Beliefs, and Products: Students' Perspectives with Project-Based Learning // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. – 2011. – Vol. 5, No. 2. – DOI: 10.7771/1541-5015.1254.
5. Thomas J. W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000. – 48 p.
6. Zhang L., Ma Y. A Study of the Impact of Project-Based Learning on Student Learning Effects: A Meta-Analysis Study // Frontiers in Psychology. – 2023. – Vol. 14. – Article 1202728. – DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1202728.